

## MULK-U MILLAT OGOHI

*Shixova Muqaddas Amanovna*

*Xiva shahridagi Ogahiy ijod maktabining*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

*Telefon: +998(90) 558 56 62*

*[shixovamuqaddas@gmail.com](mailto:shixovamuqaddas@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada g'azal janri evolyutsiyasi, Muhammad Rizo Ogahiyning "Taviz ul-oshiqin" devonida keltirilgan ijtimoiy-axloqiy qarashlari, davlat boshqaruvi borasidagi fikrlari bir g'azal tahlili misolida ochib berilgan. G'azal matnida ilgari surilgan g'oyalar "Qasidai nasihat" asaridagi va buyuk davlatchiligimiz tarixida boshqa shu ruhda yozilgan asarlar bilan bevosita mushtarak ekanligiga urg'u qaratilgan. Fikr isboti sifatida mumtoz adabiyotimiz vakillarining ayni mavzudagi fikrlari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** shoirlik mas'uliyati, "Ta'viz ul-oshiqin" devoni, ijtimoiy lirika, she'riyatning ijtimoiylashuvi, mamlakat tayanchi, axloqiy mezonlar, ogohlik, amniyat, adolat.

Mumtoz adabiyotimizning yetakchi janri hisoblangan g'azal mazmun-mohiyati bilan "oshiqona so'z"dir. Ayol zotiga xushomad, unga muhabbat izhor qilish "chegara"sidan hatlab, jamiyat hayotining eng dolzarb ijtimoiy muammolarini qalamga olishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tish uchun ijod ahliga turtki bergan narsa nima? Fan tili bilan aytganda ijtimoiy lirika – she'riyatning ijtimoiylashuviga olib kelgan mezonlar qaysilar?

Menimcha, shoir xalqi o'ziga yuklatilgan vazifa haqiqatni yozmoq, xalq dardi bilan yonmoq, millatni uyg'otmoq, "shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim" ekanligini anglab yetganidan boshlab ijtimoiylik tushunchasi g'azal janrining yetakchi mavzularidan biriga aylangan. Shoirlar – "jasorat so'zining tarjimonlari" sifatida qaralib, "shoirlik - yurakda qon silqib turgan jarohat"ga aylangan zamonlardan buyon haq so'z ilinjida qalam tebratadilar. Bu yo'lda "so'zlarning eng ulug'i" bo'lgan "baxt so'zini hammadan so'ng aytish" mas'uliyatini zimmasiga olgan millat oydinlari imon va burch chegaralarini birlashtirgan holda ijod qildilar. Shu sabab "xalqda tumor" Mashrab, "shoh yonida faqirni duo qilgan" Navoiy, "ko'ringan meniki deb davo qilgan" Yassaviy, "mulk-u millatg'a emin o'lgan" Ogahiyilar nomi xalqning e'zozida ikkinchi umrlarini yashab o'tmoqdalar.

Taxallusining o'ziyoq ogohlikka da'vatday taassurot qoldiruvchi Muhammad Rizo Ogahiy ijodida ham ijtimoiy lirikaning go'zal namunalarini uchratamiz. Jumladan, "Ta'viz ul-oshiqin" - "Oshiqlar tumori" devonidan o'rin olgan "Mulk-u

millatg'a amin o'lsa ogohlar“ deb boshlanuvchi g'azalining dastlabki baytlaridayoq davlat boshqaruvida e'tibor qaratish kerak bo'lgan asosiy jihatlarga urg'u beriladi. Bir so'z bilan aytganda, bu mavzuda Ogahiygacha yozilgan barcha buyuk asarlarning, aytilgan hikmatli so'zlarning umumlashma mag'zi bayon qilingan .

Mulk-u millatg'a amin o'lsa agar ogohlar,

Ikki olam obro'yin hosil etgay shohlar.

Odil podshoh, fozil va farovon jamiyat haqidagi asriy orzular tarannumi sifatida baholanuvchi Navoiy qalamiga mansub quyidagi baytlar ham Ogahiy g'azalida ilgari surilgan fikrlarga to'liq mos keladi:

Erursen shoh – agar ogohsen - sen ,

Agar ogohsen – sen, shohsen –sen.

Ko'rinadiki, shohlik va ogohlik - mohiyatan bir xil tushuncha. Ya'ni ikki buyuk shoir ham ayni bir haqiqat haqida fikr yuritgan. Zero, Ogahiy har jihatdan Navoiyga munosib va yaqin izdoshdir .

Ikkinchi va uchinchi baytlar mazmunidan kelib chiqadigan xulosa esa beixtiyor mashhur “Zarbulmasal“ asarida Ko'rqush tomonidan aytilgan fikrlarni esga soladi. “Podshohi odilga uch toifadin guzur yo'qtur: avvali – olimi boamalki, podshohning oxiratlik asbobini taraddudida bo'lsa. Ikkinchisi - vaziri sohibra'yki, podshohning dunyoliq yarog'ini taraddudida bo'lsa. Uchinchisi – munshiyi rostnaviski, qalamzani nigohdor-u shamshirzan bo'lsa“.

Pasthimmat johili navdavlat o'lmas dastyor,

Shahg'a lozimdur necha donoyi oliyjohlar.

Keyingi baytlar tahliliga o'tar ekanmiz, davlat boshqaruvi, unda sipohning o'rni haqidagi fikrlarga duch kelamizki, ulardagi mazmun buyuk Sohibqiron Amir Temurning mamlakat tayanchi bo'lgan uch narsa haqidagi fikrlari bilan mushtarak ekanligini ko'rishimiz mumkin: “ Yagona podshoh, mo'l xazina, yengilmas lashkar“. Shoir shu o'rinda chiroyli o'xshatish qiladi, ya'ni “arzoldan ashrofning af'olini” istash hijabr (sher, botir) ning ishini ruboh (tulki) dan kutish bilan barobarligini aytib, johil va xudbin “nazarko'toh” lardan ehtiyot bo'lishga chaqiradi.

Johil-u xudbin ko'ra olmas o'zidin o'zgani,

Loyiqi davlat emastur har nazarko'tohlar.

Ogahiyning fikricha, mamlakatda amniyat rivoj topsa, “avbosh, bebok, beroh” kimsalar qolmaydi. Bil'aks, shoh mamlakat va sipoh ahvolidan g'ofil bo'lsa, uning oqibatiga ham tayyor tursin. Illo, u payt “fig'on-u ohlar sud etmas”.

G'ofil o'lsa shah agar mulk-u sipah ahvolidin,

Boshig'a ish tushkanda sud etmas fig'on-u ohlar.

Ogahiyning ushbu qarashlarida siyosat va davlatga munosabati, hukmdorlar fazilatleri, burch va vazifalari borasidagi fikrlari aks etgan “Qasidai nasihat“ asarining qisqacha ko'rinishi, mantiqiy davomiday ko'rinadigan ushbu g'azal nisbatan

zamonasidan qoniqish ohangi bilan yakunlanadi. Negaki, zamona hukmdori – “shohi ogoh” va “hama ogohlar onga arkoni davlatdur”.

Ogahiy, qil shohi ogohing duoi davlatin -

Ki, onga arkoni davlatdur hamma ogohlar.

Jumladan, “arkoni davlat” orasida zamonasining yetuk insoni, Haq taolo buyurgan yo’ldan og’ishmay shoh yonida sobit tura olgan, uni adolat, tenglik, ogohlik, amniyatga chorlab, “ogahlarning ogahi”, “fazl-u donish sipehrining mahi” ga tenglashtirilgan Ogahiy hazratlarining borligi nafaqat Xorazm adabiy muhitining, balki butun Sharq adabiyotining katta yutug’idir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. VI jildlik, 1jild. Devon.—T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1971.
2. G‘azallar: J.37 /Ogahiy – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa uyi, 2018-yil.
3. “Mulk-u millatg’a emin o’lsa agar ogohlar...” {she’rlar} / Muhammad Rizo Ogahiy .- T:”Adabiyot” nashriyoti, 2022.